

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 25 038 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Qashqadaryo viloyati Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- yanvar holatiga, birlik	2026- yil 1- yanvar holatiga, birlik
Qashqadaryo viloyati:	22 452	25 038
G'uzor	1058	1140
Dehqonobod	871	937
Qamashi	1397	1544
Qarshi	1730	1952
Koson	1485	1691
Kitob	1651	1758
Mirishkor	763	858
Muborak	753	805
Nishon	1132	1259
Kasbi	1043	1108
Ko'kdala	652	1074
Chiroqchi	1161	1327
Shahrisabz	1113	1254
Yakkabog'	1535	1686
Qarshi sh.	4750	5166
Shahrisabz sh.	1358	1479

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillastirildi

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabrida 4 825 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1740 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1079 ta, sanoatda 557 ta, hamda boshqa xizmatlarda 500 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2024- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 8574 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3924 ta, sanoatda 2725 ta, boshqa xizmatlarda 3130 ta hamda tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Qashqadaryo viloyati:	4 484	4 825
G'uzor	210	251
Dehqonobod	166	157
Qamashi	281	213
Qarshi	445	414
Koson	338	311


Kitob	294	256
Mirishkor	189	189
Muborak	163	143
Nishon	224	250
Kasbi	202	188
Ko'kdala	226	471
Chiroqchi	193	238
Shaxrisabz	204	205
Yakkabog'	276	359
Qarshi sh.	818	901
Shahrisabz sh.	255	279

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,2 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,4 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi xizmatlar sohasida – 43,1 %, sanoatda – 17,7 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 31,5 % va qurilishda – 7,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 19 668,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 41,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 122,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Ko'kdala va Chiroqchi tumanlarida (100,0%), Qamashi tumani (99,7%), Shahrisabz shahri (90,3 %), Mirishkor tumani (75,5%) hamda Shahrisabz tumani (57,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 464,2 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 70,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (97,6 %), Yakkabog' tumani (97,4 %) va Dehqonobod (96,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 744,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmdagi ulushi 39,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 96,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (91,3 %), Chiroqchi tumani (89,9 %) va Qamashi tumani (88,1 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 47 491,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 98,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Dehqonobod va Chiroqchi tumani (99,5 %), Ko'kdala tumani (97,7 %) va Qamashi (97,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 29 327,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 95,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (99,1 %), Nishon tumani (99,1 %), Dehqonobod, Qarshi va Kitob tumanlarida (98,2 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 40 582,1 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 75,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (93,0 %), Qamashi tumani (88,7 %), Nishon tumani (87,3 %), Kasbi tumani (85,0 %) va Dehqonobod tumani (84,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 188,8 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 36,8 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan

eng ko'p ulushi Dehqonobod, Ko'kdala va Chiroqchi tumanlarida – 100,0 %, Kitob tumanida – 99,6 %, G'uzor tumanida – 99,2 %, Shahrisabz shahrida – 99,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 228,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 48,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Ko'kdala tumanida – 99,5 %, Shahrisabz shahrida – 98,1 %, Qamashi tumani 97,7 %, Yakkabog' tumanida – 94,3 % hamda Kitob tumanida – 90,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,7 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi, % da




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 37,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida esa 52,5 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-dekabrida nisbatan 14,6 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 51,6 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 42,6 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 10,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,9 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 52,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 69,3 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 42,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 27,6 % yoki 14,4 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 4,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 3,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 44,9 % ni, xizmatlar sohasida – 27,2 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 11,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – 38,4 % ni, xizmatlar sohasida – 27,0 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – 49,1 % ni, xizmatlar sohasida – 17,0 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,2 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>